

## FITRAT SHE'RIYATIDA SOMATIZMLAR

*Lolaxon Og'aboyeva, Urganch davlat universiteti 4-bosqich talabasi, Urganch innovatsion universiteti xodimi*

## SOMATISMS IN FITRAT'S POETRY

*Lolaxhan Agaboyeva, 4th course student of Urganch State University, Employee of Urganch Innovation University*

## СОМАТИЗМЫ В ПОЭЗИИ ФИТРАТА

*Лолахан Агабоева, студент 4-курса Ургенчского государственного университета, сотрудник Ургенчского инновационного университета*

**Annotatsiya:** Ushbu maqolada XX asr o'zbek madaniyati, fan va ta'lim, adabiyot sohasining yirik vakili, o'zbek jadidchiligining ulkan siymolaridan biri bo'lgan Abdurauf Fitrat she'riyatidagi somatizmlarning estetik va semantik funksiyalari, somatik komponentli birliklarning qanday ishlatilganligi haqida nazariy fikrlar berilgan. Somatik birliklar "Kim deyay seni?" va "Go'zalim, bevafo gulistonim" she'rlari asosida tahlilga tortilgan.

**Kalit so'zlar:** somatizm, "ko'z balosi", "ko'zim", sinekdoxa, somatik komponentli birliklar, "ayoqingg'a yiqilay", "ko'zuma", "sochingni".

**Abstract:** In this article, the aesthetic and semantic functions of somatisms in the poetry of Abdurauf Fitrat, one of the great figures of Uzbek modernism, a major representative of the field of Uzbek culture, science and education, and literature of the 20th century, and the use of units with somatic components are theoretically discussed. thoughts are given. Somatic units "How can I call you?" and "My unfaithful gulistan" poems were analyzed.

**Key words:** somatism, "eyesore", "my eye", synecdoche, units with somatic components, "fall at your feet", "my eyes", "your hair".

**Аннотация:** В данной статье даны теоретические размышления об эстетических и семантических функциях соматизмов в поэзии Абдурауфа Фитрата, крупного представителя узбекской культуры, науки и образования, литературы XX века, одной из грандиозных фигур узбекского джадидизма, о том, как используются единицы соматического компонента. Соматические единицы были проанализированы на основе стихотворений: "Как тебя назвать?", "Моя прекрасная, неверный мой цветок".

**Ключевые слова:** соматизм, "глазное бедствие", "мой глаз", синекдоха, единицы соматического компонента, "упасть к твоим ногам", "твои волосы".



<https://orcid.org/0009-0006-9395-7443>

e-mail:

[lolamansurbekovna@gmail.com](mailto:lolamansurbekovna@gmail.com)

**KIRISH.** Insoniyat tarixida shunday daholardir ijodkorlar bo'lganki, ular o'z hayotini, ijodini, fikr-u zakovatini xalqning bugungi turmushini yaxshilashga, ertangi kunini charog'on qilishga bag'ishlagan[1]. Darhaqiqat, jadid namoyandalari-ning ko'zga ko'ringan vakillaridan biri Abdurauf Fitrat ham o'z elining aqli va qalb ko'ziga aylangan edi. O'zbek tarixchisi, filolog, tarjimon, yozuvchi, dramaturg, shoir, zamonaviy o'zbek adabiyoti asoschilaridan, O'rta Osiyo jadidchiligining taniqli vakili, birinchi o'zbek professori Fitrat shaxsida umumlashadi.

Jadidchilik milliy ma'rifatparvarlik harakatining tarafdori bo'lgan Fitratning adabiy merosi xilma-xildir. U adib sifatida badiiy ijodning barcha turlarida qalam tebratibgina qolmay, o'zbek adabiyotining yangi tur va janr bilan boyishi, she'r tuzilishining isloh etilishi, adabiy realizmning teranlashishi, davr, jamiyat va xalq hayoti bilan bog'liq bo'lgan muhim ijtimoiy muammolarning o'zbek adabiyotida badiiy talqin etilishiga ulkan hissa qo'shgan<sup>1</sup>[2].

Fitrat she'riyatidagi somatizmlarni tahlilga tortmasdan oldin, somatizm atamasiga to'xtalsak. Somatizm grekcha so'zdan olingan bo'lib, "soma" – tana ma'nosini anglatadi. Anglaganimizdek, somatik komponentli she'rlarning tarkibidagi somatizmlar bu tana a'zolari nomlarini bildirib keluvchi so'zlardir.

**ADABIYOTLAR TAHLILI VA METOD.** Ma'lumki, oxirgi yillarda somatik birliklar ishtirok etgan turli xil janrlar turli xil tillarda olib borilayotgan ilmiy izlanishlarning bosh mavzusi bo'lib keladi.

Fitrat she'riyatidagi somatizmlarni tahlil qilish maqsadida uning ijodidagi "Kim deyay seni?" hamda "Go'zalim, bevafo gulistonim" she'rlarini misol tariqasida oldindi.

"Kim deyay seni?" she'ridagi somatik komponentli birliklarni tilshunoslik nuqtayi nazaridan tahlilga tortamiz:

*"Oppog'im, Xudoy asrag'ay seni,  
Ko'z balosidan saqlag'ay seni".*

Ushbu baytda Fitrat somatizm sifatida "ko'z balosi" frazemasidan foydalagan. "Ko'z balosi" frazemasida yomon ko'z, nazar tegishi kabi bir qancha salbiy ma'nolarni ifodalaydi. Shoir bu

misrada "ko'z balosi"ni insonga, ya'ni o'zini tili bilan aytilsa, "oppog'i"ga zarar yetkazuvchi vosita sifatida ishlatib, somatik komponentli bu ibora orqali Fitrat Allohga sevgilisini yomon ko'zdan, zararli ta'sirlardan asrashini iltijo qiladi. "Ko'z" orqali inson nazarda tutilgan bo'lsa, u holda bu yerda sinekdoxa orqali ma'no ko'chishi bor deb qaraladi. Qism orqali butun ifodalangan, ko'z orqali insonga ishora beriladi. "Balo" so'zi esa har qanday zararli ta'sirni ifodalab, Allohdan sevgilisini insonning har qanday zararli ta'siridan asrashini so'raydi. Yana shuni ham aytib o'tishimiz kerakki, "ko'z balosi" iborasi xalq og'zaki ijodida ko'p ishlatiladi. Bu esa shoir o'z ijodida xalqona timsollarga murojaat qilganligini yaqqol ko'rsatib beradi.

*"Gulmi sen, ko'zim, jonmi sen ko'zim?  
Ko'nglimning buti yo Xudosimi?"*

Ushbu baytlarda shoir "ko'z" somatizmini takror qo'llagan. Shoir nega aynan "ko'z" somatizmidan foydalandi? Dono bobolarimiz aytganidek, "Ko'z – ko'ngil ko'z gusi". Insonning ichki kechinmalari: g'am, quvonch, shodlik, baxt, qayg'u – barchasi ko'zda o'z aksini topadi. Shu boisdan ham adabiyotimizda ko'z yetakchi timsollardan biri sanaladi. Shoir ushbu misralarida "ko'z" somatizmini sevgi va yaqinlikni ifodalash maqsadida ishlatadi, ko'z insonning hayotidagi eng muhim a'zosi bo'lganidek, she'rdagi "Kim deyay seni?" deb ta'rif uchun so'z topa olmayotgan sevgilisi ham Fitrat dunyosidagi eng muhim insondir.

Fitrat she'rda "ko'z" somatizmning ham ijobiy, ham salbiy jihatlarini ochib beradi. "Ko'z balosi" orqali insonga zarar yetkazuvchi har qanday vositalar, yomon insonlar ifodalasa, "ko'zim" simvolik jihatdan sof va chuqur, samimiy sevgi ifodasi uchun ishlatiladi.

Fitrat "Kim deyay seni?" she'ridagi somatizmlar sevgi va hissiyotlarining chuqurligini va ularga bo'lgan ehtiyojlarni ifodalab, bu tasvirlar orqali shoir sevgining inson hayotidagi qanchalik qadri va nozik ekanligini ko'rsatib beradi.

Fitratning "hijron dardiga to'la, har misrasidan ayriliq iztiroblarining dudi anqib turgan

<sup>1</sup> uz.wikipedia.org./wiki/Abdurauf Fitrat.

g'oyat mungli va ayni choqda, g'oyat nafis yozilgan<sup>2</sup> "Go'zalim, bevafo gulistonim" she'ridagi somatik birliklarni estetik va semantik funksiyalarini tahlilga tortamiz.

*"Kel, gulim, kel, ayoqingg'a yiqilay,  
Bir zamon, qo'y: to'lib-toshib yig'lay".*

Oyoqning lug'aviy ma'nosiga nazar tashlaydigan bo'lsak, inson, hayvon umuman jonli organizm gavdasining tayanib turishi, yurishi uchun xizmat qiladigan tana a'zosi. Oyoq barcha tana a'zolaridan pastda joylashganidan ko'rinadiki, shoir bejizga "oyoq" somatizmidan foydalanmaydi.

"Ayoqingg'a yiqilay" frazemasi orqali shoir bir-biriga o'xshamagan yangi-yangi semalar ifodalaydi. Birinchidan, shoir sevgilisining oyoqlari ostida bo'lishga, kimlarnidir nazarida o'zini kamtarona ko'rsatishga ham tayyorligini ko'satadi. Chunki ayol oyog'i tagiga yiqilgan erkakka hamisha ijobiy nazar bilan qaralmaydi. Lirik qahramon shuni bila turib, unga qarshi chiqmaydi. Yana bir tarafidan e'tibor qaratilsa, oyog'iga yiqilmoq orqali unga bo'lgan chin sevgisini va chuqur hurmatini ham ko'rsatadi. Agarda "oyoq" va "yiqilmoq" so'zlarini alohida tahlil qilinsa va bu yerda metafora asosida ma'no ko'chishi bor deb qaralsa, yana bir ma'noni ilg'ab olish ham mumkin. Ya'nikim, bu orqali shoir jismoniy jihatdan yiqilishni, taslim bo'lishni ko'rsatadi. Demak, bu harakat qattiq sevgini yoki juda afsuslanishni kuchi ifodalangan. Keyingi misralardagi "to'lib-toshib yig'lamoq" birikmasi orqali yig'lashning uzluksiz holatini ifodalash bilan birga, azob, sevgi, g'am kabi his-tuyg'ularining haddan ziyod kuchli ekanligini ham ko'rsatib bergan. She'rdagi lirik qahramonning ichki-dardini to'xtatib bo'lmaydigan darajaga borganligini ko'rsatadi. Ushbu somatizm orqali Fitrat sevgi va dardni juda kuchli tarzda tasvirlaydi.

Fitrat ushbu she'ning yana bir baytida "oyoq" somatizmidan mohiroIOIOIOna va o'z o'rnida foydalanadi.

*"Kel ayoqingg'a qon bo'lub to'kulay,  
Bir nafas dard-hajrdan qutulay".*

Ma'lumki, qon – bu hayotning ramzi va jon fidoligini ifodalaydi. Uning to'kilishi esa inson salomatligiga ziyon yetkazishi bilan birga, jismonan og'riq ham beradi. Shoir esa bu somatik birikma orqali fidoyilikni, sevgilisiga o'zini butunlay

bag'ishlaganini mahorat ifodalashini ko'rish mumkin. Adib sevgilisini oyoqlari ostida o'zini fido qilishini, jonini berishga tayyor ekanligini aytadi. Ikkinchi satrda qo'llangan "bir nafas" birikmasi juda qisqa muddatni bildirsa, "dard-hajr" sevgilisini yo'qotganidan keyin kelib chiqadigan chuqur qayg'u va azobni ifodalaydi. Umumiy olib qaraganda, shoir sevgilisining oyog'iga qon bo'lub to'kilishi orqali bir lahza bo'lsa ham dard va hijrondan qutulishini orzu qiladi. Demak, Fitrat "oyoq" somatizmi orqali o'zining chin sevgisini, yoriga bo'lgan ehtirom-u unga fido bo'lishini, sevgisi uchun har narsaga tayyor ekanligini, dard-u alamini yorqin bo'yoqlarda chizadi va bu misralar orqali shoir o'zining his-tuyg'ularini o'quvchiga juda kuchli yetkazadi.

*"Qo'y, bir oz qo'yki, xoki poyingni,  
Surmadek yoshli ko'zuma suray".*

Somatik komponentli birikmani tahlil etmasdan oldin, bir so'z aniqrog'i, bir tasvir kishi e'tiborini tortadi. Nega shoir surmadek ifodasini qo'llaydi? Bu savolga javob topish uchun tilshunosligimizning leksikalogiya bo'limiga murojaat qilish lozim. Surma – ko'z uchun ishlatiladigan qora rangli modda bo'lib, qadimda ko'zga chiroy berish va ko'zlar salomatligini saqlash uchun ishlatilgan. Ibn Qayyim : "Surma ko'z salomatligini saqlab, nurini oshiruvchi va ravshan qiluvchidir", - deya ta'rif bergan. Demak, Fitrat bu misrada surmaning "chiroy" ma'nosini olmaydi. She'rda lirik qahramon yorining oyog'i ostidagi tuproq o'zining ko'zlari uchun foydali ekanligini aytadi va bu orqali muallif sevgilisiga bo'lgan chuqur ehtiromni yana bir bora isbotlaydi. Shoir bu baytda ishq shu qadar kuchli ekanligidan, hatto uning oyog'i ostidagi tuproqni ham muqaddas bilib, o'zi uchun davo ekanligini ifodalaydi.

*"Kel, go'zal dilbarim, kel sochingni  
Bir o'pay, bir o'pay-da so'ngra..."*

Sochlar odatda adabiyotda go'zallik va jozibadorlik ramzi bo'lib xizmat qiladi. Shoir ham sevgilisining sochlariga e'tibor qaratib, uning jozibasini yanada kuchliroq ta'kidlaydi, uni sochlarini tarash orqali unga yaqin bo'lishini, uni his qilishni istaydi.

**MUHOKAMA.** Yuqoridagi tahlildan ko'rinadiki, Fitrat somatizmlar orqali chuqur va sermazmun hissiyotlari, sevgilisiga bo'lgan chin

<sup>2</sup> Mutavakkil Burhonov "Fitrat haqida xotiralar" "Fitna san'ati". Toshkent, 1993.

muhabbati va tortayotgan dard-azobini ifodalaydi, “yuragidagi bor dardini qog‘ozga to‘kib soladi”<sup>3</sup>. She‘rdagi har bir somatizm muhim rol o‘ynab, shoir ichki olamini ochib berish uchun xizmat qilgan.

Yuqorida Fitratning ikki she‘ri misolida tilshunoslik sohasidagi somatizmlarni tahlilga tortganda barcha somatizmlar yoriga bo‘lgan kuchli muhabbatini anglatib kelishi yorqin bo‘yoqlarda yaqqol ko‘ringan.

**NATIJARLAR.** Balkim, bu somatizmni asl zamirida boshqa yangi ma‘no ham mavjuddir. Fitrat ifodalayotgan o‘tli muhabbatini yoriga emas, Vataniqadir. Ya‘nikim, “ko‘z balosidan” saqlashini Allohga iltijo qilayotgan, o‘zining dunyosida eng muhim bo‘lgani, qaysidir ma‘noda uning “oyoqlari ostida” bo‘lishi, o‘zini “oyog‘i ostida” fido qilishga tayyor bo‘lgan she‘rdagi obraz uning o‘z Vataniqadir.

**XULOSA.** Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, Fitrat she‘rlari mavzu jihatdan xilma-xil va rang-barangligi bilan boshqa shoirlarning she‘rlaridan ajralib turadi. Shoir qalamiga mansub she‘rlar mazmun jihatdan chuqur bo‘lishi bilan birga badiiy jihatdan mukammal hamdir.

Fitrat she‘riyatida o‘z davrining o‘ziga xosligini mohirona aks ettirgan. Uning she‘riyatida milliy va ma‘naviy qadriyatlar, erkinlik, mustaqillik uchun kurash, insoniylik kabi mavzular bilan bir qatorda kuchli va o‘tli muhabbat ham salmoqli

o‘rinni egallagan. Shoir o‘z she‘riyatida o‘zbek tilining boyligi va so‘zlarning rang-barangligini jozibali tarzda ifodalaydi.

Shoirning she‘riy uslubi va tili zamonaviy adabiyot ixlosmandlari uchun ham tushunarli va mazmunli bo‘lib, o‘z she‘riy asarlarida inson ruhiyati, ichki dunyosi va jamiyat muammolarini chuqur yoritib bergan. Uning ijodida milliy uyg‘onish, o‘z-o‘zini anglash va milliy o‘zlikni tiklash mavzulari muhim o‘rin tutadi.

Fitrat she‘riyatida nafaqat o‘z davrining, balki bugungi kun o‘zbek adabiyotining ham ajralmas qismi bo‘lib, uning ijodi milliy adabiyotimiz rivojida muhim ahamiyatga ega.

#### **ADABIYOTLAR RO‘YXATI:**

1. Mutavakkil Burhonov. Fitrat haqida xotiralar. Fitna san‘ati. Toshkent, 1993.
2. Abdurauf Fitrat. Tanlangan asarlar I jild. T.: Ma‘naviyat, 2000.
3. Boltaboyev X. Xorijiy fitratshunoslikdan lavhalar/Fitrat va jadidchilik. – T.: A.Navoiy nomidagi O‘zbekiston Milliy kutubxonasi nashriyoti, 2007.
4. Fitrat A. Tilimiz I. // Tanlangan asarlar (Nashrga tayyorlovchi X.Boltaboyev). – T.: Ma‘naviyat, 2006.
5. Saidov Y.S. Fitrat badiiy asarlari leksikasi: Filol.fan.nomz.diss. – T.: 2001.



<sup>3</sup> Mutavakkil Burhonov “Fitrat haqida xotiralar” “Fitna san‘ati”. Toshkent, 1993.